

JADID MA'RIFATPARVARLARINING PEDAGOGIK QARASHLARI



Shahnoza Shovkatova Sirojiddin qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi 1-kurs magistranti

@shovkatova0810@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola Jadidchilik harakatining yorqin vakillari bo’lmish bir qator muallimlar, yozuvchi-shoirlarning pedagogika yo’nalishida qo’shgan o’z xissalarini o’rganadi. Hamda Jadidchilik faoliyatining kelib chiqish tarixini o’rganadi.

Kalit so’zlar: Jadid ma’rifatparvarlari, metodlar, jadidlar, ilm fan, turkiy tillar, pedagogic nazariyalar,

Аннотация

Эта статья исследует вклад в педагогику ряда учителей, писателей-поэтов, ярких представителей джадидистского движения. Изучает историю зарождения джадидистской деятельности.

Ключевые слова: джадидское просвещение, методы, джадиды, наука, тюркские языки.

Annotation

This article explores the contributions of a number of teachers, writers and poets, bright representatives of the Jadidism movement, in the direction of pedagogy. As well as studies the history of the origin of the activity of Jadidism.

Keywords: Jadid enlightenment, methods, jadids, science, Turkic languages.

“XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o’lkasida teran tarixiy ildizlarga egadir. Yurtimiz ulkan ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy ahamiyatga ega ushbu jarayonlardan chetda qolmagani, aksincha, bu harakatning markazlaridan biriga aylanganini ta’kidlash lozim. O’z zamonining ilg’or namoyandalari bo’lgan jadidlar g’oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma’rifat tarqatish, ta’lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g’oyasi bilan maydonga chiqdilar. Shu maqsadda o’z mablag’lari hisobidan maktab va teatrlar, nashriyot va kutubxonalar, gazeta va jurnallar tashkil qildilar, qobiliyatli yoshlarni chet ellarga o’qishga yubordilar. Ularning bu olajanob tashabbus va harakatlari jamiyat hayotida kuchli aks sado berib, qudratli to’lqinga aylandi. O’ylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo’lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g’oya va amaliy harakatlarini to’la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda

erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma’naviy kuch-quvvat olamiz. Yurtimizda mustabid tuzum davrida siyosiy qatag‘onga uchragan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. 31 avgust – Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanmoqda. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va uning hududiy bo‘limlari faoliyat olib bormoqda. Jadidchilik harakati tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar, badiiy asarlar, kinofilmlar ko‘plab yaratilmoqda. Ulug‘ma’rifatparvarlarimiz nomlari bilan ataladigan yodgorlik majmualari, ta’lim muassasalari, muzeylar, bog‘ va xiyobonlar barpo etilmoqda. O‘tgan uch yil mobaynida O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan qatag‘on qurboni bo‘lgan to‘rt yuzdan ziyod vatandoshlarimizning nomlari oqlandi. Ularning aksariyat qismini jadidchilik harakati vakillari tashkil etishi ayniqsa e’tiborlidir. Hurmatli do’star! Biz ma’rifatparvar bobolarimizning muqaddas orzularini ro‘yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yangi Renessans poydevorini yaratishni strategik vazifa qilib belgilaganmiz. Shu maqsadda ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat sohalarida tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Bu borada avvalo ta’lim tizimini zamon talablari asosida tashkil etish, o‘qituvchi va murabbiylarning jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirishga ustuvor ahamiyat qaratmoqdamiz. Keyingi olti yilda respublikamizda maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni qariyb 6 barobar ko‘payib, 4988 tadan 29420 taga, oliy o‘quv yurtlari soni esa 77 tadan 213 taga yetkazildi. Yurtimizda yangi turdag‘i Prezident maktablari, ijod maktablari, ixtisoslashgan maktablar faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyat parvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi. Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur o‘rganishni dolzarb vazifa deb hisoblaymiz. Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topa olamiz. Bu bebahoh boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi. Anjumanning barcha qatnashchilariga sihat-salomatlik, yangi ijodiy yutuqlar, konferensiya ishiga esa muvaffaqiyatlar tilayman”. Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi prezidenti.

Shuni ta’kidlash joizki, Jadidchilik harakati o‘zining bir qator sa’yi harakati ya’nikim yoshlarning ta’lim va tarbiyasini yuksaltirish, Turkiston o’lkasini marifiy va madaniy taraflama isloh qilish orqali, turkiston zaminida chuqur iz qoldirgan. Avvalo, Jadid so’zining ma’nosи “yangi” degan ma’noni anglatadi. Nomidan ko’rinib turibdiki, Jadidlar siyosatga hamda ilm-fanga yanglik kiritishni, yangi maktablar ochishni, yoshlarni ilmliroq qilishga intilganlar. Mahmudxoja Behbudiy ta’kidlaganidek, “Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig‘a tasavvul (vosita) va tashabbus

etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo‘lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo‘lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi”.

Shu sababli ham jadid mutafakkirlari sog’lom farzandni tarbiyalash uni ilmli, ma’rifali qilish uchun kelajakda xalqini yuksaltiradigan farzand bo’lib yetishishlari uchun avvalo ota onalarni ilm ma’rifatli bo’lishga chorlaganlar. Bu xususidan Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta’lim- tarbiyasida ota onalarning ahamiyati yuqori o’rin tutishini takidlaganlar. Bu uchun esa ota onalar avvalo farzandlarini maktab va madralarda ta’lim olish uchun tayyorlab berishlari kerak bo’lgan. Shundan so’ngina, yoshlar davlat oliv o’quv yurtlarida ta’lim olishlarini uqtirganlar.

Shunday qilib, bu sa’yi harakatlarning asosi bo’lgan jadidlik faoliyatining tepasida Maxmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid CHo‘lpon, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Co‘fizoda, Xamza, Sadriddin Ayniy, Tavallo singari xalqimizning o’nlab fidoiy farzandlari, shoiru adiblari, davlat va siyosat arboblari turgan edilar. Ular xalqni marifatlashtirish uchun Turkiston o’lkasida ko’plab ishlarni olib borganlar. Misol qilib oladigan bo’lsak:

МАHMUDXO’JA BEHBUDIY “Padarkush” drammasining muallifi bo’libgina qolmay u o’z uyida ochgan “usuli jadid” deb nomlangan maktabining barcha xarajatlarini o’z gardaniga olgan. Va bundan tashqari Behbudiy “ Padarkush” drammasidan tushgan daromadni boshqa shaharladi ya’ni Qo’qon, Samarqand, Namangan, Toshkent va Kattaqo’rg’onda ochilgan “usuli jadid” maktablariga hadiya qilgan. Provardida bu maktablar uchun o’zi «Muntaxabi jo‘g‘rofiya umumiy» («Qisqacha umumiy jo‘g‘rofiya»), «Madxali jo‘xrofiya umro-qiy» («Ahli jo‘g‘rofiyasiga kirish»), «Muxtasari jo‘g‘rofiyai Rusiy» («Rusianing qisqacha jo‘g‘rofiyasi»), «Kitobul aftol» («Bolalar maktubi»), «Muxtasari tarixi islom» («Islomning qisqacha tarixi»), «Amaliyati islom» va «Yangi hisob» darsliklarini yaratdi va o’z mablag‘iga matbaa oolib, maktab uchun darslik va qo‘llanmalarini tekinga bosib tarqatadi.

ABDULLA AVLONIY (1878-1934) mehnatkash xalq farzandlarining kelajagiga butun borlig‘i bilan ishongan holda, ularning savodini chiqarish, sinfiy ongini o’stirish maqsadida yangi usuli savtiya maktablari uchun darslik va qo‘llanmalar ham yaratdi. Ayniqsa, uning «Muallimi avval» (1911), «Muallimi soniy» (1912), «Turkiy Guliston yoxud axloq» (1913), 6 qismdan iborat «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» (1909-1917), «Maktab guliston» (1915) va boshqa asarlari o‘zbek milliy tarbiyashunosligi tarixida muhim o’rin egallaydi.

MUNAVVAR QORI ABDURASHIDXON O‘G‘LI (1878—1931) ham «usuli savtiya» maktabiga ixlos bilan qarab, chor hukumati Turkiston o’lkasidagi aholini qanday ma’naviy-madaniy uzlatda saqlayotganini va undan qutulish choralarini

faqat maktab ta'lim-tarbiyasidagi keskin islohotga bog'liqligini to'g'ri tushungan holda chor hukumatining mustamlakachilik boshqaruv usuliga qarshi kurashda faollik ko'rsatdi: mana shu maqsad yo'lida Toshkentda ilg'or fikrli ziyolilar va turli guruhlardan iborat «*Turon*» jadidlar jamiyatini tashkil etdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turkiston o'lkasida chuqur ildiz otgan bu jadidchilik harakati nafaqat yoshlarni ilm-fanga qiziqtira olganlar balki, ular yoshlarni siyosiy-madaniy hayotga bo'lgan qiziqishlarini oshira olganlar. Kelajakda yoshlar har sohada qishloq xo'jalik sanoatida, ilm-fanda bundan tashqari ishlab chiqarish jarayonida ham jahot iqtisodiyotiga teng kela oladigan yoshlar bo'lishga chorlaganlar. Shu tufayli ham yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rinn egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi Yangi O'zbekistonda namoyon bo'lib turmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- SH. Mirziyoyev: Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqarok konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigidan. 2023 yil 6-mart
- Temurjon Yusubbayevich Ahmedov "Xorazm jadidlarining faoliyati va pedagogik qarashlarining bugungi yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati".
- A.Yu.Axmedov "Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari".
- Mirsaidova Nilufar Sobirjonovna "Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogik qarashlari"